


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60911200 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining  
malaka talablari*

Toshkent-2023



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent tibbiyot akademiyasi

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «28» 08 dagi 397 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	6
2.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yilgan talablar.....	
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	15
2.3.2.	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar .....	16
2.3.3	<i>60911200 – Oliy hamshiralik ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi .....	16
	Bibliografik ma'lumotlar.....	18
	Kelishuv varag'i .....	19

## **1. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60911200 – Oliy hamshiralik ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **60911200 – Oliy hamshiralik ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60911200 – Oliy hamshiralik ishi** bakalavriat ta'lim yo'nalishi - fan va sog'liqni saqlash sohasiga tegishli yo'nalish bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida o'tkir va surunkali kasalliklarning tarqalishini oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, zamonaviy usullardan keng foydalangan holda bemorlarni sog'lomlashtirish bo'yicha asosiy muammolarni hal qilish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy

vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

### **1.2.2. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

-turli mulkchilik shaklidagi davolash-profilaktika muassasalari (oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokor punktlari, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlar, qariyalar pansionati, tez tibbiy yordam stansiyalari va h.k.);

-sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

-tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

-jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

-ilmiy-tadqiqot jarayoni;

-“valeologiya” tibbiy ixtisosligi bo'yicha sog'liqni saqlash tizimining birlamchi muassasalarida (oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalari, markaziy ko'p tarmoqli tibbiyot birlashmalari) tibbiy faoliyatni amalga oshirish jarayoni;

-o'z yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatini yuritish jarayoni.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

### **60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

-sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;

-aholi orasida keng tarqalgan o'tkir va surunkali kasalliklar bo'yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;

-shoshilinch yordam ko'lami bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish hamda amaliyotda qo'llash;

-tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan kasalliklar hamda muammolar bo'yicha zamonaviy ma'lumot, bilimlarga ega bo'lish va faoliyati davomida ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam tanishib borish;

-aholi orasida sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga qaratilgan chora-tadbirlarini o'tkazish;

-reabilitatsiya choralari talab qilinadigan holatlarda, ularni aholiga zarur bo'lgan darajada qo'llash chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish;

-aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;

-sog'liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona

foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtirok etish;

-tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muammolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtirok etish.

### **1.2.3. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

-tashkiliy-boshqaruv;  
-tibbiy-profilaktika;  
-uslubiy;  
-tashxislash;  
-reabilitatsiya;  
-ilmiy tadqiqot;  
-tibbiy-ijtimoiy;  
-pedagogik (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida) faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

### **1.2.4. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

**60911200 – Oliy hamshiralik ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

-malakali hamshiralik yordamini tashkil etish, yoritish va nazorat qilish;  
-moddiy, mehnat va informatsion resurslardan ratsional foydalanishni ta'minlash;  
-hamshiralik xizmatini to'g'ri ta'minlashni tashkillashtirish;  
-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salmog'iga qarab, boshqaruvni rivojlantirish;  
-atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;  
-ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;  
-informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;  
-ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;  
-bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Tibbiy-profilaktika faoliyatida:**

- aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil qilish;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish usullarini tatbiq etish;
- aholining sanitariya-gigiyenik saviyasini oshirish, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- aholini sog'lomlashtirish, bemorlarni parvarishlash va kuzatish;
- kasalliklarning xavfli omillarini aniqlash va oldini olish, sog'lomlashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Uslubiy faoliyatida:**

- hamshiralik ishini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borish va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- hamshiralik ishiga oid seminarlar o'tkazish;
- davolash profilaktik muassasalari faoliyatini va aholi salomatligining asosiy ko'rsatkichlarini qayd etish, tahlil etish va hisobot tayyorlash;
- "valeologiya" tibbiy ixtisosligi bo'yicha tibbiy faoliyatni amalga oshirish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Tashxislash faoliyatida:**

- bemorlarga tashxis qo'yishda faol ishtirok etish;
- bemorlarni instrumental tekshiruviga tayyorlash;
- bemorlarni laborator tekshiruv uchun biomateriallar yig'ish;
- bemorni subyektiv va obyektiv tekshirishga tayyorlash;
- tekshiruv asosida hamshiralik tashxisini qo'yish;
- bemorlarning dolzarb va potensial muammolarini aniqlash;
- bemorning tibbiy ehtiyojlarini aniqlash;
- bemorning parvarish rejasini ishlab chiqish va samaradorlikni baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Reabilitatsiya faoliyatida:**

- surunkali va o'tkir kasalliklaridan so'ng asoratlari bo'lganda reabilitatsion chora tadbirlarni qo'llashni;
- bemorlarni ruhiy ijtimoiy qo'llab quvvatlash choralarini qo'llash;
- bemorlarda reabilitatsion chora tadbirlarni usullarini qo'llash;
- nafas mashqlari, shifobaxsh jismoniy tarbiya uslublarini ishlab chiqish;
- bemorlarni parvarishda hamshiralik jarayonini qo'llash;
- bemor va nogironlarda kasbiy faollikni, jismoniy tetiklikni va ruhiyatni qayta tiklash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- hamshiralar tomonidan o'tkazilayotgan parvarish usullarini hamshiralar assosatsiatsiyasi tomonidan ilmiy asoslangan qo'llanmalar asosida tatbiq etish uchun izlanish;
- parvarish modellari asosida kechadigan parvarish jarayonlarini monitoringini olib borish;
- hamshiralik parvarishining samaradorligini oshirish va bemorlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish;

- sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etish;

- sog'liqni saqlash tizimida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqishda qatnashish;

- bemorlarni parvarishi bo'yicha ilmiy texnik ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil etish va tizimlashtirishda ishtirok etish;

- kasbiy faoliyat obyekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

- ilmiy - tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

- ilmiy muammolar yechimi natijalarini amaliyotga joriy etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

#### **Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

- oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va xavf omillarini bartaraf qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Pedagogik faoliyatida (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida):**

- uzluksiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish;

- o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash va tatbiq etishni bilish;

- UMKXT tizimining mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv modullari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lish;

- zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo'lish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

## **2. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- Abstrakt fikrlash, analiz, sintez qobiliyatlari, o'qish va dalillarga asoslangan zamonaviy tibbiyot bilimlarni o'zlashtirish;



- Amaliy vaziyatlarda bilimlarni qo'llash;
- Kasbiy faoliyatni mohiyatini tushunish;
- Yangi sharoitga adaptatsiya qilish va faoliyat yuritish;
- Asoslangan qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash, shaxslara'ro kommunikatsiya qilish;
- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- Hamshiralik parvarishi rejasiga muvofiq bemorlarni parvarish qilish;
- Diagnostik va terapevtik muolajalarni bajarish;
- Bemorning holatini kuzatib borish va ma'lumotlarini hamshiralik bayonnosiga rasmiylashtirish;
- Ineksiya va laboratoriya tekshiruvlari uchun bemordan biomateriallar yig'ish va olish;
- Shifokorning tavsiyasiga muvofiq dori vositalarini tarqatish;
- Kasalliklarning oldini olish va sog'lom tumush tarzini targ'ib etish usullarini tatbiq etish;
- Bemorlarning tibbiy ko'rikka tayyorlashda hamshiraning funksional majburiyatlari;
- Kasalxona ichki infeksiyasiga qarshi kurashish chora tadbirlarini ishlab chiqish;
- Hamshiralik jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish;
- Hamshiralik tashxisini qo'yish, parvarish rejasini tuzish, parvarishni amalga oshirish;
- Hamshiralik kasallik tarixini rasmiylashtirish;
- Hamshiralik vakolatidan kelib chiqib, ijtimoiy muhim kasalliklar bo'yicha tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish;
- Sog'liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish;
- Dori darmonlar, qon va qon o'rnini bosuvchi preparatlarning saqlanishini ta'minlash;

- Shifoxonada xavfsizlik muhitini tashkil qilish;
- Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish chora tadbirlarini amalga oshirish;
- Tibbiy hujjatlarini rasmiylashtirish;
- Bemorda hamshiralik fizikal baholash muolajasini o'tkazish;
- Hamshiralik tashxisini qo'yish va samaradorligini aniqlash;
- Aniq klinik vaziyatlarda klinik muolajalarni to'g'ri tanlash;
- Jamoa orasida, bemorlar o'rtasida, aholi orasida kasbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish;

- Dalillarga asoslangan tibbiyotning keng qamrovli prinsiplariga, dalillarga asoslangan hamshiralik amaliyotiga asoslangan tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilishda tizimli yondashish;

- intizomiy, ma'muriy, fuqorolik – huquqiy va jinoiy javobgarlikni anglash;
- Hamshiralik tibbiy ko'rigini tashkil qilish, parvarish rejasini tuzish, amalga oshirish va samaradorlikni baholay olish;

- Bemorni individual ehtiyojlari va muammolarini hisobga olgan holda bemorga malakali umumiy va maxsus hamshiralik yordamini tashkil etish;

- Bemorga o'z o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish;
- Mustaqil ravishda bemorga hamshiralik modellaridan foydalanib, parvarish usullarini qo'llash;

- Asab, endokrin, yurak qon tomir, nafas a'zolari kasalliklarini o'z vaqtida aniqlashda invaziv va noinvaziv tekshiruvlar o'tkazish;

- Favqulodda va shoshilinch holatlarda malakali birinchi yordam ko'rsatish;
- Uyda tibbiy xizmat ko'rsatish va patronaj sumkasini hozirlash tamoyillariga rioya qilish;

- Turli patologiyalarda bemor uchun menyu tuzish, dorixona uchun talabnoma yozish, bo'lim tibbiy hujjatlarini rasmiylashtirish;

- Progressiv model yo'riqnomasi bo'yicha ishlash borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

**“Oilaviy shifokor assistenti” yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:**

1. Sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida parvarishni ta'minlash:

- individual yondashish va xavf omillarini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish;

- profilaktik parvarishni ta'minlash;
- parvarish va muolajalarni o'tkazish;
- ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash;
- biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqot qilish.

2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan havf guruhlarini aniqlash va tibbiy yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish) :

- tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, oilaviy tibbiyotni rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;
- olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash;
- kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.

3. Oilaviy shifokorlik sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:

- ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);

- sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baholash.

**“Valeologiya” yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:**

1. Sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida kasalliklarni oldini olishni ta'minlash:

- individual yondashish va xavf omillarini hisobga olgan holda profilaktik yordam ko'rsatish;

- profilaktik parvarishni ta'minlash;

- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

- to'g'ri ovqatlanishni targ'ibot qilish;

- jismoniy tarbiya va sport omillarini targ'ibot qilish;

- ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash;

- biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqat qilish.

2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan xavf omillarini, profilaktik chora-tadbirlarini aniqlash va tibbiy yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish):

- tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, valeologiya bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;

- olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash;

- kasbiy faoliyatda ilmiy ahborotdan foydalanish.

3. Valeologiya sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:

- ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);

- sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baholash.

**“Akusherlik” yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:**

1. Fertil yoshdagi ayollarga kompleks parvarishni ta'minlash:

- individual yondoshish va xavf omillarini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish;

- profilaktik parvarishni ta'minlash;

- parvarish va muolajalarni o'tkazish;

- ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash;

- biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqat qilish.

2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan akusherlik yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish):

- tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, akusherlik ishini rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;

- olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash;

- kasbiy faoliyatda ilmiy ahborotdan foydalanish.

3. Akusherlik sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:

- ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);

- sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baholash.

**“Anesteziologiya va reanimatsiya” yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:**

1. Reanimatsionn bemorlarga kompleks parvarishni ta'minlash:

- individual yondoshish va xavf omillarini hisobga olgan xolda yordam ko'rsatish;

- profilaktik parvarishni ta'minlash;

- parvarish va muolajalarni o'tkazish;

- ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash;

- biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqat qilish.

2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan intensiv yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish):

- tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, anesteziologiya va reanimatsiyani rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;

- olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash;

- kasbiy faoliyatda ilmiy ahborotdan foydalanish.

3. Anesteziologiya va reanimatsiya sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:

- ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);

- sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baholash.

**“Xirurgiya” yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:**

1. Xirurgik bemorlarga kompleks parvarishni amalga oshirish:

- o'tkazilgan jarrohlikni hisobga olgan holda hamshiralik parvarish taktikasini tanlash va amalga oshirish;

- xirurgik bemorlarga profilaktik yordam ko'rsatish;

- xirurgik patologiyasi bo'lgan bemorlarga maslaxat va axborot berish;

- xirurgik operatsiyalarni o'tkazishda qatnashish;

- xirurgik patologiyasi bo'lgan bemorlarga ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish.

2. Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida xirurgik patologiyasi bo'lgan bemorlarga hamshiralik parvarishni tashkil etish va amalga oshirish:

- mavjud ijtimoiy xizmatlar asosida jarrohlik kasalliklarni hamshiralik parvarishni muvofiqlashtirish;

- boshqa tibbiy mutaxassilar bilan birgalikda faoliyatni olib borish;

- jarrohlik hamshirasini faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish;

- shoshilinch jarrohlik yordamni tashkillashtirish va amalga oshirish;

- tibbiy hujjatlarni to'ldirish;

- xirurgik bemorlarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilimlarni doimiy yaxshilash.

3. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan jarrohlik hamshiralik yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish) :

- tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini xisobga olgan holda, jarrohlik hamshiralik parvarishini rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;

- olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash;

- kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.

4. Xirurgiya soxasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:

- ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baxolash, natijalar);

- sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiq etish.

**“Radiologiya bo'limi hamshirasi” yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:**

1. Radiologiya bo'limida bemorlarga kompleks parvarishni amalga oshirish:

- o'tkazilgan radiologok tekshiruvlar va davolash muolajalarni hisobga olgan holda hamshiralik parvarish taktikasini tanlash va amalga oshirish;

- radiologiya bo'limi bemorlariga profilaktik yordam ko'rsatish;

- radiologiya bo'limi bemorlariga maslaxat va axborot berish;

- tekshiruvlar va muolajalar o'tkazishda qatnashish;

- radiologiya bo'limi bemorlariga ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish.

2. Radiologiya bo'limi bemorlarga hamshiralik parvarishni tashkil etish va amalga oshirish:

- mavjud ijtimoiy xizmatlar asosida hamshiralik parvarishni muvofiqlashtirish;

- boshqa tibbiy mutaxassilar bilan birgalikda faoliyatni olib borish;

- radiologiya bo'limi hamshirasini faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish;

- tibbiy hujjatlarni to'ldirish;

- radiologiya bo'limi bemorlariga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilimlarni doimiy yaxshilash.

3. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan hamshiralik yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish) :

- tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini xisobga olgan holda, jarroxlik hamshiralik parvarishini rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;

- olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash;

- kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.

4. Radiologiya sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:

- ilmiy izlanishlar reja-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);

- sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbqiq etish

**“Hamshiralik ishini boshqarish” yo‘nalishi bo‘yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetentsiyalarga ega bo‘lishi kerak:**

1. Hamshiralik personalni boshqarish va tibbiy muassasa faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha boshqarish qarorlarni ishlab chiqish:

- o'z faoliyatini ilmiy izlanishlar asosida tashkil etish, uning kasbiy faoliyati sohasida foydalaniladigan axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlash uchun kompyuter usullarini egallash;

- boshqaruvning mohiyatini, sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, me'yoriy va ma'muriy hujjatlar bilan ishlash va sog'liqni saqlash sohasidagi professional funksiyalarni amalga oshirish uchun iqtisodiy va huquqiy bilim asoslarini qo'llash;

- muassasaning parvarishi xizmatining potensial rivojlanishi va ishlashini tahlil qilish, tashkilotda o'zgarishlarning zarurligini aniqlash, innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha harakat rejasini ishlab chiqish;

- kelajakdagi kasbining tabiati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, sog'liqni saqlash va parvarishning asosiy muammolari, ularning alqoasi va ijtimoiy siyosatning boshqa sohalari bilan o'zaro bog'liqligi;

- kasbiy funktsiyalarni bajarish bilan bog'liq vazifalarni belgilash va vazifalarni belgilash, ularni hal etish uchun o'rganilayotgan fanlarning usullarini qo'llash;

- parvarishlash tizimida tashkilot faoliyatining tahlili, uning cheklanishi va salohiyatini aniqlash, samaradorlikni oshirish dasturini ishlab chiqish, mavjud resurslarni hisobga olgan holda va uni amalga oshirishni ta'minlash;

2. Ish joyida ijtimoiy-psixologik tartibga solishni amalga oshirish;

- hamkasblar bilan muloqot qilish va jamoada ishlashga, ijrochilarning ishini tashkil etishga, tashkilotning ishchi kuchiga bog'liq boshqaruv qarorlarini topishga va boshqarishga tayyor bo'lish;

- tashkilotlarda nizolarni, stresslarni va innovatsiyalarni boshqarish uchun psixologiya bilimi bilan foydalanadigan tashkilotlarda samarali muloqot usullarini qo'llash;

3. Aholi salomatligini ahvolini tahlil qilish;

- aholi salomatligini ahvoli va tibbiy, tibbiy-ijtimoiy va sog'liqni saqlashga bo'lgan ehtiyojini tahlil qilish usullarini qo'llash, ularni kasbiy muammolarni yechishda foydalanish;

- bemorga tibbiy va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishning samaradorligini baholash uchun bemorning sog'lig'i aniqlash metodologiyasi, malakali parvarish qilish va ularning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ma'lumotlarni yig'ish va baholash usullarini qo'llash;

- sog'lom turmush tarzi haqida ilmiy tushuncha mavjud, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish usullari, jismoniy o'zini o'zi yaxshilash ko'nikmalarini qo'llash;

- profilaktika, sog'liqni saqlash choralari tashkil etish va o'tkazish;

- favqulotda vaziyatlarning diagnostikasi, favqulotda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha choralar tashkil etish va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;

4. Hamshiralik sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar tashkil etish va o'tkazish.

- axborot bilan mustaqil ishlash (o'quv, informatsion, me'yoriy, ilmiy);

- kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar va jarayonlarni ilmiy tahlil qilish;

- Onalik va bolalikni muhofazalash bo'yicha tadqiqotlar olib borishda sog'liqni saqlash ahvolini tahlil qilishning statistik, ijtimoiy, gigiyenik, epidemiologik usullaridan foydalanish;

- aholi sog'lig'ini baholashda aholiga nisbatan parvarish qilish sifatini baholashda sifat va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlarni olib borish;

- dalillarga asoslangan tibbiyot asosida olingan natijalarni baholash, olingan natijalarni tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarish, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar berish va samaradorlikni baholash bo'icha ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarning egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rajasiga mantiqiy ketma ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar-bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Malakaviy amaliyot- umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakillantirishga qaratiladi:

#### **2.3.1 Kvalifikasiya: Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi**

**2.3.2. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6360	212
Tanlov fanlar	240	8
Malakaviy amaliyot	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

**2.3.3. 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>6360</b>	<b>212</b>	
1.01	O‘EYT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	F1404	Falsafa	120	4	4
1.03	D1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O‘RTTXT11206	O‘zbek/rus tili. Tibbiyotda xorijiy til	180	6	1-2
1.05	A11206	Anatomiya	180	6	1-2
1.06	F1204	Fiziologiya	120	4	2
1.07	TB1104	Tibbiy biologiya	120	4	1
1.08	TKB11206	Tibbiy kimyo. Biokimyo	180	6	1-2
1.09	LTVTT1103	Lotin tili va tibbiy terminologiya	90	3	1
1.10	TATTVBF1105	Tibbiyotda axborot texnologiyalari. Tibbiy va biologik fizika.	150	5	1
1.11	MV11204	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	120	4	2
1.12	HI11208	Hamshiralik ishi	240	8	1-2
1.13	P1306	Patologiya	180	6	3
1.14	SSEHAKTFXA1306	Sog‘liqni saqlash etikasi. Hamshiralik amaliyotida kommunikatsiya. Tibbiy faoliyatning huquqiy asoslari	180	6	3
1.15	F1303	Farmakologiya	90	3	3
1.16	INKE1304	Infekcion nazorat. Klinik epidemiologiya	120	4	3
1.17	GVEV1304	Gigiyena va ekologiya. Valeologiya	120	4	3
1.18	THI1406	Terapiyada hamshiralik ishi	180	6	4
1.19	GHI1404	Gerontologiyada hamshiralik ishi	120	4	4
1.20	ND1403	Nutristiologiya (Dietologiya)	90	3	4
1.21	HIB1403	Hamshiralik ishida boshqarish	90	3	4



1.22	TP1303	Tibbiy psixologiya	90	3	3
1.23	AKHI1406	Asab kasalliklarda hamshiralik ishi	180	6	4
1.24	YKHI1505	Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi	150	5	5
1.25	XVHDXHI1505	Xirurgiya va harbiy dala xirurgiyasida hamshiralik ishi	150	5	5
1.26	PVNHI1504	Psixiatriya va narkologiyada hamshiralik ishi	120	4	5
1.27	TTYFV1506	Tez tibbiy yordam. Favqulotda vaziyatlar	180	6	5
1.28	PHI1506	Pediatryada hamshiralik ishi	180	6	5
1.29	NHI1605	Neonatologiyada hamshiralik ishi	150	5	6
1.30	RK1604	Reabilitologiya. Kineziologiya	120	4	6
1.31	OHI1604	Onkologiyada hamshiralik ishi	120	4	6
1.32	EHI1604	Endokrinologiyada hamshiralik ishi	120	4	6
1.33	AVGHI1605	Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi	150	5	6
1.34	JHI160	Jamoadada hamshiralik ishi	120	4	6
1.35	PPKPKPKT M1708	Pedagogika va psixologiya. Kasbiy psixologiya. Kasbiy pedagogika. Kasbiy ta'lim metodikasi	180	6	7
1.36	TRHI1706	Tibbiy radiologiyada hamshiralik ishi	180	6	7
1.37	OTHI1706	Oila tibbiyotida hamshiralik ishi	180	6	7
1.38	DAT1704	Dalillarga asoslangan tibbiyot	120	4	7
1.39	KF1704	Klinik farmakologiya	120	4	7
1.40	MM1826	Mutaxassislik moduli	780	26	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>240</b>	<b>8</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (4 ta fan)</i>	240	8	3,4,5,6
		<b>Jami</b>	<b>6600</b>	<b>220</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>1-8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>120</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Gurux T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Oliy hamshiralik ishi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko'nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, Oliy ma'lumotli hamshira, hamshiralik ishida boshqaruv, hamshiralik jarayoni, hamshiralik tashxisi.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar este'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi,  
"Sog'liqni saqlash" ta'lim sohasi bo'yicha  
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,

Rektor

A.K.Shadmanov

2023-yil "04"

M.O.



KELISHILGAN:


O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh.Yakubov

2023-yil "02"

M.O.




Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,  
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari  
rektorlar rayosati raisi

Rektor

B.T.Daminov

2023-yil "05"




O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirligi  
Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi

Boshliq

O'.S.Ismailov

2023-yil "04"

M.O.




Toshkent shahar sog'liqni saqlash  
bosh boshqarmasi

Boshliq

A.V.Alimov

2023-yil "05"

M.O.



**Toshkent tibbiyot akademiyasi 60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“24” 04 2023-yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar – Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.K.Shadmanov, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori B.T.Daminov, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i O'.S.Ismailov, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i A.V.Alimov birgalikda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60911200 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'li tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalar va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim siaftini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarorlari hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy xijjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malak talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsia etish mumkin.

**Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori**

**B.T.Daminov**

**Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i**

**O'.S.Ismailov**

**Toshkent shahar Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i**

**A.V.Alimov**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori**

**A.K.Shadmanov**

